



## METOBOLIK SINDROM BILAN BIRGALIKDA UCHRAGAN PODAGRANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

G'afurova M., Meliyev Sh., Yarmatov S.T.

Samarkand davlat tibbiyot universiteti

Samarqand, Uzbekiston

**Kirish.** Podagra qadim zamonlardan beri ma'lum bo'lgan kasalliklar qatoriga kiradi: Misr mumiyalaridan birida oyoq bosh barmoq sohasida natriy uratning kristallari topilgan. Podagrik artritning birinchi klassik tavsifi ingliz klinisti Th. Sydenham tomonidan keltirilgan. 1883-yilda A. Garrod podagra bilan og'rigan bemorning qoniga tushirilgan ip yordamida qonda siydik kislotasi (SK) — giperurikemiya darajasining oshishi faktini aniqladi. 1889 yilda o'tkir podagrik artrit paytida bemorning bo'g'im suyuqligida urat kristallari topilgan. A. Gatman (1950-y) "essensialgiperurikemiya" asosida kasallikni purin metabolizmining tug'ma buzilishi deb ta'riflagan. Faqat 1961 yilda MacCarty va Hollander nihoyat o'tkir podagrik artritning rivojlanishida urat kristallarining rolini aniqladilar.

**Tadqiqot maqsadi.** Metabolik sindrom bilan birgalikda uchraydigan podagra xususiyatlarini o'rganish va bo'g'im sindromning rivojlanishiga va yurak - qon tomir kasalliklari xavfining dinamikasiga kompleks terapevtik yondashuvning ta'sirini baholash.

**Tadqiqot materiallari va usullari.** Tadqiqotga 91 bemor kiritilgan. 1-guruh S. WaUase va boshqalarning tasniflash mezonlari asosida tashxis qo'yilgan birlamchi surunkali podagra bilan kasallangan 56 bemorni tashkil etdi. 2-guruhga — podagra va boshqa immun-yallig'lanish jarayonisiz metabolik sindrom bilan kasallangan 35 nafar bemor olindi.

**Tadqiqot natijalari.** Metabolik sindrom va podagra kombinatsiyasi kasallikning erta boshlanishiga yordam beradi, hamda qo'zish chastotasi va davomiyligini sezilarli darajada oshiradi. Ko'pincha, podagra va metabolik sindrom bilan og'rigan bemorlarda siydik kislotasining zardobdagi konsentratsiyasi va yuqori sezgir C - reaktiv oqsil bilan bevosita bog'liq bo'lgan holda triglitseridlarning ko'payishi kuzatiladi, shuningdek yuqori zichlikdagi lipoprotein ko'rsatkichining pasayishi kuzatiladi, yuqori sezgir C – reaktiv oqsil bilan manfiy korrelyatsiyaga ega bo'ladi.

Podagra bilan og'rigan bemorlar uchun, metabolik sindromdan qat'i nazar, 8SOKE-6,42, P1YUSAM-13,2 baholash shkalasi bo'yicha yurak - qon tomir kasalliklari xavfi yuqori. P1YUSAM shkalasi podagra va metabolik sindromli bemorlarda xavfni baholash uchun ko'proq mos keladi, chunki u yurak - qon tomir kasalliklarining umumiy xavfiga maksimal hissa qo'shadigan parametrlarni hisobga oladi va past zichlikdagi lipoprotein qiymatlari ( $R = 0,55$ ,  $p < 0,001$ ), umumiy xolesterin ( $R = 0,36$ ,  $p < 0,01$ ) va triglitseridlar ( $R = 0,33$ ,  $p < 0,01$ ) bilan statistik jihatdan muhim korrelyatsiyalarga ega.

**Xulosa.** Olingan natijalar podagra bilan og'rigan bemorlarda metabolik sindrom parametrlarini faol baholash, yuqori sezgir C - reaktiv oqsil darajasini majburiy aniqlash va P1YUSAM shkalasi bo'yicha yurak - qon tomir kasalliklarining umumiy xavfini hisoblash zarurligini ko'rsatadi, bu esa bemorning hayot sifati va umrini yaxshilash uchun podagra terapiyasiga kompleks va individual yondashuvni ishlab chiqishga imkon beradi.